

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2020-yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2042,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 103,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish-43,1 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat-9,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(2020-yil yanvar-mart oylarida)



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab
chiqarishning o'lishiga qo'shgan hissasi**
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 2,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 79,3 % ni tashkil etganini kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 988,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 48,4 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 6,0 % ni (2019-yil yanvar-mart oylarida-4,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali-4,1 % (5,2 %), o'rta-quyi texnologiyali-11,4 % (8,3 %) va quyi texnologiyali-78,5 % (81,6 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'rta-yuqori texnologiyali




2019-yil yanvar-mart



O'rta-quyi texnologiyali



2020-yil yanvar-mart



Yuqori texnologiyali









Quyi texnologiyali



Jami sanoat tarkibida ichimliklar ishlab chiqarish-1,2 % (2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 193,4 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish-2,9 % (169,3 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish-2,6 % (150,5), qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish-0,03 % (126,8), kiyim ishlab chiqarish-6,7 % (114,7), mebel ishlab chiqarish-0,2 % (115,6) va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi-0,4 % (114,8 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda boshqa tolali materiallardan (yog'ochdan tashqari) olingan selluloza-112,0 %, etilen polimerlardan qoplar va sumkalar-181,6 % ga oshdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-martga nisbatan, % da
413,8	Sellyuloza, ming t 90 % 	463,4	112,0 ↑
9,7	Un, ming tonna 	12,0	124,1 ↑
579,0	Kalava ip, tonna 	650,4	69,0 ↓
13,7	Paxta tolasi, ming tonna 	13,6	99,5 ↓
14,5	Paxta urug'i, ming tonna 	21,9	150,7 ↑
70,6	Aroq, ming litr 100 % spirt 	50,8	72,0 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 983,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 48,2 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-martga nisbatan, % da
---	----------------------	---	---------------------------------------

Elektroenergiya, mln. kVt/s

4794,9



4375,1

91,2



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

50,3



40,3

80,1





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar-227,9 % ga, oqova suvlarni yo'qotish 154,5 % ga, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar-170,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-martga nisbatan, % da
---	----------------------	---	---------------------------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln. so'mda

1977,9



4508,1

227,9 ↑

Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'mda

2241,5




3827,4

170,8 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 587,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 28,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (2019-yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati)



2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 60,9 % dan 2020-yilning yanvar-mart oylarida 60,3 % ga kamayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 17,0 % ni (2019-yil yanvar-mart oylarida 8,6 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi,
tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-martga nisbatan o'sishi, % da
Sirdaryo viloyati	587,6	100,0	108,3
Guliston shahri	83,2	14,2	85,8
Shirin shahri	4,6	0,8	90,3
Yangiyer shahri	30,1	5,1	200,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	47,5	8,1	42,8
Guliston tumani	14,9	2,5	90,5
Mirzaobod tumani	59,0	10,0	168,8
Oqoltin tumani	15,8	2,7	101,2
Sardoba tumani	14,4	2,5	101,2
Sayxunobod tumani	39,6	6,7	105,1
Sirdaryo tumani	247,8	42,2	146,3
Xovos tumani	30,7	5,2	116,5


Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 335,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da

2019-yil yanvar-
mart



2020-yil yanvar-
mart




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar



Boshqa korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi-96,4 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi-3,6 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2020-yil yanvar-mart, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-martga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	2042,0	103,3
Guliston shahri	209,9	109,1
Shirin shahri	935,1	92,8
Yangiyer shahri	84,1	135,6
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	81,0	59,6
Guliston tumani	48,4	126,6
Mirzaobod tumani	95,1	126,5
Oqoltin tumani	73,7	102,0
Sardoba tumani	47,9	143,0
Sayxunobod tumani	77,7	127,1
Sirdaryo tumani	352,5	132,4
Xovos tumani	36,6	112,6

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 45,8 %), Sirdaryo tumani (17,3 %), Guliston shahri (10,3 %), Mirzaobod tumani (4,7 %), Yangiyer shahri (4,1 %), Boyovut tumani (4,0 %), Sayxunobod tumani (3,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi

(2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da)




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Yangiyer shahri (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 135,6 %), Sirdaryo tumani (132,4 %), Sayxunobod tumani (127,1 %), Guliston tumani (126,6 %), Mirzaobod tumani (126,5 %) va Oqoltin tumani (102,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 200,0 %), Mirzaobod tumani (168,8 %), Sirdaryo tumani (146,3 %), Xovos tumani (116,5 %), Sayxunobod tumani (105,1 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 42,2 %), Guliston shahar (14,2 %), Mirzaobod (10,0 %) va Boyovut (8,1 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

(2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (50003,6 ming so'm), Sirdaryo tumanida (2745,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2408,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 692,9 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida-1929,7 ming so'mni, Guliston shahrida-918,3 ming so'mni va Mirzaobod tumanida-802,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-mart , ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	2408,0	692,9
Guliston shahri	2314,3	918,3
Shirin shahri	50003,6	246,1
Yangiyer shahri	1932,9	692,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	624,9	365,9
Guliston tumani	666,2	205,0
Mirzaobod tumani	1293,5	802,2
Oqoltin tumani	1417,6	304,1
Sardoba tumani	726,3	218,2
Sayxunobod tumani	1005,2	512,1
Sirdaryo tumani	2745,2	1929,7
Xovos tumani	383,1	321,4

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi

(2019-yil yanvar-mart oyiga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 740,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi

(2020-yilning yanvar-mart oylarida, % da)




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boyovut tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Guliston shahrida (84,0 %), Sayxunobod tumanida (69,9 %), Sirdaryo tumanida (67,6 %) va Sardoba tumanida (65,3 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Guliston tumanida (35,5 %), Oqoltin tumanida (30,8 %) va Shirin shahrida (0,6 %) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Viloyatda 1862 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 494 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,5 %) Guliston shahriga, 313 tasi (17,0 %) Sirdaryo tumaniga, 177 tasi (9,6 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil yanvar-mart oylarida)

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 169 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 65,1 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'rish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 14 ta loyiha bo'yicha 23,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 1,1 % ni tashkil etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 428,3 ming. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi, jami viloyat eksport hajmining 1,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2019-yilning yanvar-martga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o`lishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	7	14
Korxonalar soni, birlik	7	15
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so`m	45,9	23,2
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollar	323,3	428,3
Yaratilgan yangi ish o`rinlari, birlik	231	127

**Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi**

Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23